



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



MUQIMIYNING “VEKSEL” SHE’RIDAGI BUGUNGI KUN IQTISODIY MUAMMOLARIGA YECHIMLAR

Rajabova Malika Nuriddin qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Tel.: +998 91 555 81 82

malikarajabova00@gmail.com

Ilmiy rahbar: Muhitdinova Muxlisa Sadriddinovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“O’zbek va rus tillari” kafedrasi dotsenti v.v.b

Annotatsiya. Ushbu maqola Muqimiyning mashhur "Veksel" she'rini o'z davrining iqtisodiy aks-sadosi sifatida ko'rib chiqadi va undagi g'oyalarni bugungi O'zbekistonning zamonaviy iqtisodiy muammolariga bera oladigan yechimlarini tahlil qiladi. Maqolada shoirning XIX asr oxiridagi pul islohotlari, xususan, Qo'qon tangalarining qadrsizlanishi haqidagi mushohadalari chuqur o'rganiladi.

Kalit so'zlar: pul islohoti, tangalar, iqtisodiy rivojlanish, zamonaviy yondashuv, pulning qadrsizlanishi

Abstract. This scholarly article examines Muqimiyy's celebrated poem, "Veksel," as a profound reflection of its era's economic landscape. It thoroughly analyzes the poem's core themes and arguments in relation to contemporary economic challenges facing Uzbekistan today. The analysis deeply explores the poet's astute observations regarding late 19th-century monetary reforms, particularly the devaluation of Qo'qon coinage.

Key words: monetary reform, coins, economic development, modern approach, devaluation of money

Mamlakatimiz prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev har gal yoshlari bilan uchtrashganlarida “Ilmni qadrlang, ilmga intiling!” degan so’zlarni takrorlaydilar. Sir emaski, jahon bozorida faqatgina o’z ustida ishlaydigan, o’qigan, zamonaviy ilm va hunarlarni puxta egallagan, yosh avlodlarini ayni shu ruhda tarbiyalagan xalqlar, davlatlar jadal rivojlanmoqda. [1] Quvonarlisi, ona Vatanimiz olamshumul yutuqlarga erishgan buyuk siymolar yurti, va aynan o’sha zotlar merosini o’rganish va muhofaza qilish, ularning kelgusi avlodga kamchilik va yo’qotishlarsiz yetib borishini ta’minalash orqali bundanda yuksak cho’qqilarni zabt etishga ishonch hosil qilishimiz mumkin. Bu borada adabiyotning o’rni ayniqsa beqiyosdir. Bevosita iqtisodiyotni belgilab, iqtisodiy qarorlar qabul qilmasada, adabiyot jamiyatdagi iqtisodiy muammolarni chuqur tahlil qilish, ularni anglash va ularga yechim izlashda kuchli ijtimoiy-madaniy vosita sifatida xizmat qiladi. Ana shunday vositalar mualliflaridir biri Qo’qonlik qalami o’tkir shoir Muqimiyyidir. Lekin XIX asr oxiri – XX asr boshlari Qo’qon adabiy muhitining yetakchi namoyondasining adabiy merosi ham ko’p adolatsizliklar qurban bo’lgan. [2]





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



Muhammad Aminxo'ja Muqimiy – XIX asr o'zbek adabiyotining eng mashhur vakillaridan biri hisoblanadi. U o'z faoliyati davomida Sharq adabiyotidagi eng yaxshi an'analarni davom ettirgan holda jahon adabiyotshunosligida "devon adabiyoti" yo'nalishida ijod qildi. O'z navbatida, rus istilosi tufayli ijtimoiy hayotda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni adabiyotga olib kirib, uning yanada yangilanishida o'zining yuksak hissasini qo'shdi. Shoirning she'rlari u hayotlik paytidayoq Turkistonning turli shaharlariga yoyilgan, shoirlar ularga muxammaslar bog'lar, xonandalar qo'shiq qilib aytar edilar. U Qo'qon adabiy maktabining o'ziga xos vakili, milliy ozodlik harakati haqida she'rlar yozgan, o'z salohiyati va mavqeyi bilan mакtab yaratgan ijodkor edi. [3] Muqimiy dunyoqarashi va intilishlari bilan muhit o'rtasidagi ziddiyat uning ijodida tanqidiy yo'nalishni maydonga keltirgan. Bu uning hajviyotida ko'proq aks etgan. Hajviyoti mazmunan satira va yumorga bo'linadi. Satiralarida chor amaldorlari, ayrim mahalliy boylarning kirdikorlari ochib tashlangan. „Tanobchilar“, „To'y“, „Moskovchi boy ta'rifida“, „Hajvi Viktor boy“, „Voqeai Viktor“ kabilar shular jumlasidandir. „Saylov“, „Dar mazammati zamona“ va boshqalarda esa o'lkaza kirib kelayotgan kapitalistik va g'ayriaxloqiy munosabatlar hamda ularning oqibatlari ko'rsatilgan.

Quyida shoirning "Veksel" asaridan bir parchaga e'tibor qarataylik:

*Har ishki xalqimizg'a hokimlar etsa farmon,
Qilmay iloji yo'qtur dushvoru xohi oson,
Nuqra-kumushlaridin boylar xijil, pushaymon,
Yuz dod qilmasunmu bechorai musulmon,
Har tangada miridin yaqqol ziyoni chiqdi.*

Muqimiy bu asarni Zavqiy g'azaliga muxammas sifatida yozadi. Unda kapitalistik munosabatlaming doimiy yo'ldoshi — krizis haqida so'z boradi. Ammo, Zavqiy g'azalining bosh mavzusi veksel hujjatlari bo'limgan (unda biror imo-ishorani ham, hatto bu so'zni ham uchratmaymiz). Veksel ko'rsatilgan muddatda muayyan miqdordagi pulni to'lash majburiyati, qayd etilgan qarzdorlik haqidagi rasmiy hujjat, qimmatli qog'oz hisoblanadi. Demak (taxmis bog'lash prinsiplariga rioya qilingani holda), Muqimiyning taxmisining ham asosiy mazmuni batamom boshqadir. Zavqiy g'azalida ham, Muqimiyning unga bog'lagan taxmisida ham Farg'ona iqtisodiy hayotida katta voqeа bo'lgan pul islohoti va uning oqibatlari tasvir etiladi. Shunga ko'ra, noshirlar tomonidan asarga berilgan nomni o'zgartirish, muxammas mazmuniga to'la muvofiq tushadigan yangi sarlavha qo'yish zarur ko'rinadi. [4] 90-yillarda Qo'qonda pul islohoti o'tkaziladi, va unga ko'ra Qo'qonda zarb etilgan kumush tanga pulning qimmati 25 foizga kamaytiriladi. Bu hodisani Zavqiy quyidagicha tasvirlaydi:

Har tangada miridin yaqqol ziyoni chiqdi.

"Har tangada" ya'ni har bir pul birligida, aniqrog'i muomaladagi har bir tangada "miridin" chiqqani ta'kidlanmoqda. Bu so'zning lug'aviy ma'nosi "murid" (shogird, izdosh) bo'lsa-da, bu yerda majoziy ma'noda kelgan. Kontekstga ko'ra, u kutilmagan, yashirin, begona yoki zararli elementni bildiradi. Pul islohoti doirasida Qo'qon tangalarining qiymati





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATION G'YALAR



25 foizga tushirilganini hisobga olsak, "miridin" bu yerda pulning qadrini tushiruvchi, uni "buzuvchi" sabab yoki yashirin yo'qotishni anglatadi. Ba'zan u "begona ta'sir", ya'ni Rossiya mustamlakachiligining pul tizimiga ko'rsatgan salbiy ta'sirini ham ifodalashi mumkin. "Ziyon" so'zi esa ziyon, talofat degan ma'noni anglatishi hisobga olinsa Zavqiyning bu misrasi pul islohoti natijasida Qo'qon tangalarining qadri tushirilishi sababli xalq boshidan kechirgan moliyaviy yo'qotish va umidsizlikni aks ettiradi. Muqimiyl tomonidan qo'shilgan mana bu izohlovchi misralar esa asarda ran asosan pul islohoti haqida borayotganligiga hech qanday shubha qoldirmaydi:

*To o'tti Rusiyog'a Farg'onaning xiroji,
Qoldi rivoj olmay Ho'qandi zarb royiji.*

"To o'tti Rusiyog'a" iborasi "Rossiyaga o'tdi" degan ma'noni anglatadi. "To" bu yerda "gacha, qadar" ma'nosida emas, balki "qachonki, shu vaqtida" degan payt bog'lovchisi o'rnila kelgan. "Xiroj" — bu soliqlarning bir turi, asosan yer yoki mahsulotdan olinadigan soliq. Tarixiy jihatdan, bu Farg'ona vodiysidan yig'ilgan soliqlar, daromadlar yoki umumiy iqtisodiy boylik ma'nosida kelgan. "Ho'qandi" so'zi esa "Qo'qonning" degan ma'noni anglatadi. "Ho'qand" — Qo'qon shahrining eski yozma shakli. "Zarb" so'zi kundalik hayotimizda kam qo'llaniladigan "zarb qilingan", ya'ni "bosilgan, chekilgan" ma'nosida kelmoqda. Bu yerda tangalar zarb qilish jarayoniga ishora mavjud. "Royij" so'zi yuruvchi, muomaladagi, qadrlanadigan, mashhur, keng tarqalgan degan ma'nolarni anglatadi. Umumiy qilib aytganda Qo'qonda zarb qilingan pullarning, tangalarning qadri yoki muomalasi rivojlanmay qoldi, boshqacharoq aytganda pasayib ketdi." Bu qatorlar bevosita Qo'qon xonligining tanazzuli va Rossiya mustamlakachiligi davrida mahalliy pul birliklarining qadrini yo'qotganini, muomaladan chiqib ketganini yoki qiymati kamayganini tasvirlaydi. Bu yuqorida tilga olingan 90-yillardagi pul islohoti, Rossiya imperiyasi tarkibida amalga oshirilgan islohotlar, natijasida Qo'qon tangalarining qiymati pasayganiga to'g'ri keladi.

Hozirgi O'zbekistonda 90-yillardagi kabi tangalar qiymatining keskin pasayishi kabi "biryoqlama" va o'tkir pul islohoti muammosi mavjud emas. Biroq, inflyatsiya, kredit siyosati, tashqi savdo balansidagi va davlat budgetidagi defisitlar kabi makroiqtisodiy muammolar mavjud bo'lib, ular aholi turmush darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Hukumat bu muammolarni bartaraf etish uchun qator islohotlarni amalga oshirmoqda, ammo ularning to'liq samara berishi uchun vaqt va tizimli yondashuv talab etiladi. Bu muammolar mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishi va aholi farovonligi uchun juda muhim ahamiyatga ega. Bunday yondashuvning amaldagi yondashuviga misol qilib prezidentimizning pul islohotlari haqidagi fikrlarini keltirishimiz mumkin. Xususan, milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash, inflyatsiyani nazorat qilish, pul muomalasini tartibga solish va xalq farovonligini oshirish asosiy maqsadlardan hisoblanadi. [5]

Xulosa qilib aytganda, Muqimiyning "Veksel" she'ri orqali XIX asr oxiridagi Turkistonning iqtisodiy ahvolini o'rganish, zamonaviy davr iqtisodiy muammolariga kutilmagan javoblar berishi mumkinligi o'z isbotini topdi. Shoir o'z satrlarida nafaqat o'sha





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



davrning pul muomalasidagi adolatsizliklarni, balki har qanday jamiyatda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan firibgarlik, qadrsizlanish va ishonchsizlikka oid abadiy muammolarni ham ilg'ay olgan. Muqimiy she'riyati bugungi iqtisodiy kurashlarimiz uchun ham muhim ko'rsatma bo'la oladi. Unga ko'ra, moliyaviy shaffoflik, mas'uliyatli pul siyosati va adolatli qonunlar har qanday 'veksel'dan, ya'ni xalqning og'riqli muammolaridan himoya etuvchi mustahkam qalqon bo'lib xizmat qiladi. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, inflyatsiyani jilovlash, byudjet intizomini saqlash va xususiy sektorga erkinlik berish — aynan Muqimiy xitoblariga javobdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Uchinchi nashri. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2022. – 440 bet.
2. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti, Toshkent “Ma'naviyat” 2004
3. Maxmudov N.M., Avazov N.R. “Muqimiyning iqtisodiy qarashlari”. Ilmiy risola. – T.:”IQTISODIYOT”, 2021.
4. Biz bilmagan Muqimiy (Yangi aniqlangan asarlar to'plami). – Toshkent: Muharrir, 2019.
5. Shavkat Mirziyoyev O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasini belgilash hamda uni joriy yilda amalga oshirish masalalari muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishidagi nutqidan.

